




LUG'ATLARDAGI DINIY BIRIKMALARNING LINGVISTIK TAHLILI



Nurmanova Zamira
Chorshanbiyeva Nafosat
Termiz davlat universiteti talabalari
Ilmiy rahbar: Xidirova Iroda

Annotatsiya: Lug'atlarda keltirilgan diniy birikmalarning ma'nodoshligi, shakldoshligi va ularning farqlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: "M.K", "At-tuhfat", "Irfoni", "I.E"

Har bir inson jamiyatning ham kundalik hayotda amal qilishi lozim bo'lgan shiorlari, o'zaro va boshqalar bilan bo'ladigan amaliy muammolarini hal qilish yo'llari bo'ladi. Inson jamiyati borki, uning axloq – odob qoidalari, insoniy sifatlarni hosil qilish va ularni hayotga tatbiq etish masalalari bo'yicha o'ziga xos tushuncha va uslublari mavjud bo'ladi. Turli davrlarda yaratilgan "M.K", "At-tuhfat", "Irfoni", "I.E" lug'atlarda diniy birikmalar keltirilgan bo'lib, ularning sinonomik, omonimlik xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.

Mahmud Koshg'ariyning "M.K" asarida va keltirilgan "tëjri uluylagan" (1-jild 297-sahifa) va "Irfoni" lug'atda "xudo suygan" birikmalari ezgu niyatlariga erishgan, el ardog'ida bo'lgan,

Xudo ulug'lagan kishi sifatida ma'nolari bir xil keltiriladi va sinonimlar qatorini tashkil qiladi. "Irfoni" lug'atda yana bir qancha sinonim bo'lgan diniy birikmalarni uchratamiz:

Bomdod namozi – tongda erta saharda o'qiladigan to'rt rakanli namoz bo'lib, uning sinonimlari:

"As – salot ul – fajr", "As – salot ul – g 'urub ", "As – salot ul – subh" (19-b)

Asr nomozi – quyosh botmasdan oldin o'qiladigan namoz bo'lib, "As – salot – asr", "saloti vusta" kabi sinonimlari bor.(19-b)

Tahajjud nomozi – tunning yarmida o'qiladigan nomoz bo'lib, "salot ul – layl" kabi sinonimini uchratamiz.(115-b)

Qur'lonni xatm qilish – Qur'oni Karimni boshdan oxirigacha oqib tugatish bo'lib, "xatm ul – kabira" (143-b), "xatm ul-sag'ira" (144-b) shaklidagi sinonimlari berilgan.

"At-tuhfat" asarida, "Tavba qilmoq" fe'li "тангрија қајтті" (254-sahifa) birikmasi shaklida keltirilgan va ular o'zaro sinonimdir.

Buning anig'ini Xudo biladi (nutqiy kamtarlik) deyish o'rnida "At - tuhfat" asarida "vallohi a'lam" (54-b) , "Irfoni" lug'atda esa "vallohi a'lam bissavob" (3-b) shaklida qo'llanilgan.



“I.E”da fitr sadaqa – islomda ramazon oyи tugashi munosabati bilan beriladigan sadaqa (81-b). Har bir musulmon erkak va ayol uchun ikki yarim kilogram xurmo, arpa, un yoki guruch yoki ularning qiymati miqdorida pul ehson qilishi vojib bo’lgan amal bo‘lib, “Irfoniy” lug‘atda “Iyid al-fitr”, “sadaqayi fitr” (111-b) shaklida qo’llanilgan bo‘lib ma’nosi deyarli bir xil.

Shunindek lug‘atlarda shakldoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan diniy birikmalar ham mavjud bo‘lib, “Irfoniy” lug‘atda bir qator so‘zliklarning shakldoshlik xususiyatiga ham to‘xtalib o’tamiz.

1.Obi rahmat – ma’lum sababga ko‘ra mayitni chiqarish oldi yuvishga qadar maxsus suv tayyorlanib, ipor solinib cho‘miltiriladi. Bu suv obi rahmat deyiladi (96 -b).

2.Obi rahmat – bahor oldi yog‘adigan, bahorni yaxshi kelishiga ekin-tekinlarning, rizq-ro‘zlarning mo‘l-ko‘l bo‘lishiga sabab bo‘ladigan yomg‘ir.

Navbatdagi shakldoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan “xudoga topshirmoq” diniy birikmamiz bo‘lib, uning uch o‘rinda omonimlik xususiyatini “Irfoniy” lug‘atda ko‘rishimiz mumkin va bular quyidagilardir:

Xudoga topshirmoq – *o‘lim bilan bog‘liq omonatni – jonini Xudoga topshirmoq* (147-b), yana bir o‘rinda *o‘zini bolasini biror kimsani Allah hifzi himoyasiga havola etmoq* shaklida kelsa, yana bir o‘rinda *biror ish nohaq yechim topganda, bu nohaq haqlik tuhmatlar uchun jazo berishni Allahdan so‘rash ma’nosida kelgan* (147-b).

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz kerakki, turli davrlarda yaratilgan lug‘atlarda diniy birikmalarni ifodalovchi so‘zliklar mavjud ekan.Ular bir vaqtning o‘zida ham leksik sinonomik, omonomik va ma’no kengayish xususiyatlari keltirilgan.Umuman olganda lug‘atlatda uchragan diniy birikmalarini lingvistik jihatdan tahlil qilish barcha zamonda bo‘lganligi kabi bugun uchun ham g‘oyatda muhim.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. M. Qoshg‘ariy. Devoni lug‘otit turk.Toshkent-1963
2. At-tuhfat uz -zakiyat fil -lug‘otit-turk.Toshkent-1968
3. J.Amonturdiyev, A.Amonturdiyev.Ma’rifiy irfoniy istilohlar lug‘ati.Toshkent-2014
4. Islom ensklopediyasi. 2004